



## HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY ADABIY MEROSNING TARIXIY TALQINI

*Saloxiddinova Sevinchbonu Bahridin qizi*

*FarDu 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Hamza Hakimzoda Niyoziyning ijodiy merosi tarixiy va adabiy-tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Shoirning jadidchilik harakatidagi oʻrni, sheʼriyatdagi novatorlik faoliyati, maʼrifatparvarlik gʻoyalari hamda sovet davrida uning ijodining ideologik talqin qilinishi masalalari yoritiladi.

**Kalit soʻzlar:** Hamza Hakimzoda Niyoziy, jadidchilik, milliy uygʻonish, maʼrifatparvarlik, novatorlik, sheʼriyat, sovet ideologiyasi, adabiy meros.

Kirish. XX asr boshlarida Turkiston hududida yuz bergan milliy uygʻonish jarayoni oʻzbek adabiyotida yangi tipdagi ijodkorlar avlodini shakllantirdi. Shu davrning yirik namoyandalaridan biri Hamza Hakimzoda Niyoziy boʻlib, u jadidchilik harakatining faol vakili, shoir, dramaturg, pedagog va jamoat arbobi sifatida milliy madaniyat va adabiyot taraqqiyotiga salmoqli hissa qoʻshgan. Biroq sovet davrida Hamza ijodi biryoqlama talqin qilinib, “inqilob kuychisi” degan ideologik qolipga solindi. Aslida esa uning ijodi milliy ozodlik, maʼrifat va ijtimoiy uygʻonish gʻoyalari bilan chambarchas bogʻliqdir.

Sovet davrida, 1939-yilda, Hamza Hakimzoda Niyoziy tavalludining 50 yilligi katta tantanalar bilan nishonlanib, shoirga “inqilob kuychisi” yorligʻi yopishtirildi. Aslida esa, shoirning inqilob mavzusidagi sheʼrlari kamboʻlib, uning asosiy ijodiy yoʻnalishi erkinlik, maʼrifat va milliy uygʻonish masalalariga bagʻishlangan edi.

Shoirning erkka (“Berma erkingni qoʻldan”, “Hoy, ishchilar!”, “Biz ishchimiz”), maʼrifatga (“Ishchilar, uygʻon!”, “Uygʻon!”), milliy oʻzlikni anglashga (“Uygʻon, Vatan”, “Yashangiz, ishchi-dehqonlar”) daʼvat etuvchi sheʼrlari



kommunistik mafkura vakillari tomonidan qayta ishlanib, ideologik manfaatlar nuqtayi nazaridan talqin qilindi. Natijada qariyb qirq yil davomida Hamza obraziga “sotsialistik realizm asoschisi” degan sun’iy maqom berildi. Aslida Hamza Hakimzoda XX asr boshlarida jadidchilik harakatining ilg‘or safida faol qatnashgan, jaholatga qarshi ma’rifatga da’vat qilgan ziyoli edi. U Turkiston mustaqilligi va xalqning erkin yashashini orzu qilgan millatparvar shoir sifatida namoyon bo‘ladi.

Shoir 10–11 yoshlaridan she’r yoza boshlagan, 25 yoshida “Devoni Nihoniy”ni tuzgan. Ushbu devonga 177 ta she’r kiritilgan bo‘lib, ularning 150 tasi g‘azal, qolganlari turli lirik janrlarda yozilgan. Hamza zullisonayn ijodkor sifatida o‘zbek, tojik hamda aralash tillarda ijod qilgan. Bu esa uning til, shakl va mazmun sohasidagi ijodiy tajribalarini ko‘rsatadi. Shoir o‘zbek she’riyatining shaklan va mazmunan yangilanishiga katta hissa qo‘shgan novator shoir hisoblanadi. Uning “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar” nomli yetti bo‘limdan iborat majmuasi xalqona ohang, barmoq va erkin vaznlarning keng joriy etilishiga xizmat qilgan.

Masalan, shoir quyidagi misralarda xalqning og‘ir ahvolini tasvirlab, uyg‘onishga chaqiradi:

Bu shunday kunlardir millat uchun qayg‘uli,  
Sa’y-harakatsiz qolgan, ishsiz, ilmsiz, bexabar...

Bu satrlarda Hamza Turkiston xalqining ilm va harakatdan yiroq qolganini fojiali holat sifatida baholab, ma’rifatni najot yo‘li sifatida ko‘rsatadi. Hamzaning xalq orasida keng tarqalgan “Lug‘-lug‘, Mamajon” ashulasi ham ijtimoiy-ma’rifiy mazmunga ega. Shoir bu asar orqali Turkistonni ilmsizlik tufayli “jaholat botqog‘iga botgan” hudud sifatida tasvirlaydi:

Dahr tutmas ilm uchun katta mol jon,  
Ma’rifatsiz qolmas axli imon,  
Ilmla, ilmla, Turkiston, ilmla, Turkiston...



Bu misralarda shoir ilmni millatning asosiy najot quroli deb biladi. “Ilmla, Turkiston” takrori orqali poetik urg‘u kuchaytiriladi va da’vat ruhiy jihatdan ta’sirchan shaklda beriladi.

Hamza she’riyati faqat targ‘ibot emas, balki tanqidiy ruh bilan ham sug‘orilgan. Shoir xalqni jaholatga mahkum etgan kuchlarni keskin fosh etadi. “Yaxshi holini yo‘qotgan oqibatsiz Turkiston” misrasi bilan boshlanuvchi she’rida shoir jamiyatdagi sustlik, jaholat, ilmsizlikning ildizlarini ochib beradi. U xalqning beparvoligi, ilmga e’tiborsizligi, milliy taraqqiyotdan orqada qolganini keskin tanqid qiladi.

“Yer islohoti”, “Majlisdan keyingi kuzatishda”, “Qutlug‘ bo‘lsin” kabi she’rlari erkin vaznda yozilib, o‘zbek poeziyasida modernistik tendensiyalarning shakllanishiga yo‘l ochdi. Shoir xalq qo‘shig‘i ohangini ijtimoiy mazmun bilan uyg‘unlashtirib, ommaviy she’riyat konsepsiyasini yaratdi.

Adabiyot tarixida “roman” atamasini birinchi bo‘lib iste’molga kiritgan va shu nomdagi asarni yozgan ijodkor ham Hamza Hakimzoda Niyoziy hisoblanadi. Garchi buasar janr talablariga to‘liq javob bermasa-da, bu fakt Hamzaning o‘zbek nasrining shakllanishidagi tarixiy rolini ko‘rsatadi.

Shu jihatdan Hamza nafaqat shoir, balki nasr taraqqiyotiga yo‘l ochgan novator ijodkor sifatida baholanadi.

Hamza faqat adib emas, balki amaliy ma’rifatparvar ham edi. U Behbudiy, Munavvar qori, Avloniy kabi jadidlar bilan bir qatorda yangi usul maktablarini ochdi, “O‘qish kitobi”, “Qiroat kitobi”, “Yengil adabiyot” kabi darsliklarni yaratdi va nashr ettirdi.

Mazkur faoliyat Hamzaning jadidchilik harakatidagi amaliy hissasini ko‘rsatib, milliy ta’lim tizimining shakllanishiga xizmat qilgan. Hamza Hakimzodaning adabiy merosi XX asr o‘zbek adabiyotining rivojlanishi va boyishida muhim ahamiyat kasb etadi. U yangi tipdagi o‘zbek adabiyotining asoschilaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Shoir ijodida milliy uyg‘onish,



ma'rifatparvarlik, ijtimoiy tanqid hamda estetik yangilanish tendensiyalari uyg'unlashgan.

Xulosa. Sovet davrida Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodi ideologik qayta talqin qilingan bo'lsa-da, uning haqiqiy ijodiy qiyofasi jadid ma'rifatparvari, milliy uyg'onish shoiri va adabiy novator sifatida namoyon bo'ladi. Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodi XX asr o'zbek adabiyotining modernlashuv jarayonida muhim bosqich bo'lib, uning merosi milliy adabiyot taraqqiyotining poydevor qatlamini tashkil etadi. Shoirning ma'rifatparvarlik, novatorlik va milliy uyg'onish g'oyalari bugungi adabiyotshunoslik tadqiqotlarida dolzarb ahamiyatini saqlab qolmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Б.Қосимов, Ш.Юсупов, У. Долимов ва б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Дарслик. Т., "Маънавият" нашриёти, 2004.
2. С.Мамажонов. Барҳаёт Ҳамза. "Фан" нашриёти, 1991.
3. Л. Қаюмов. Биз билмаган Ҳамза. "ЎзАС", 29.12.1999.
4. Й. Солижонов. Зулматдан нур кидирганлар. Т., А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007.